

4/2023,
iyul-
avgust
(№ 00066)



IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISH HAJMINI OSHIRISH YO'LLARI

Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li

PhD, Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi.

hoshimovjahongir47@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-9604-4395>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss4/a10

Annotatsiya

Maqolada iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish ko'lamini oshirish yo'llari tadqiq qilingan va milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jozibadorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan hamda taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar, YalM.

ПУТИ УВЕЛИЧЕНИЯ ОБЪЕМОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ

Хашимов Жахангир

PhD, Независимый исследователь Ташкентский финансовый институт

Аннотация

В статье рассматриваются пути увеличения масштабов привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику и проблемы привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику. Также были рассмотрены пути повышения привлекательности привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана и сформулированы предложения и рекомендации.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, предприятия с иностранными инвестициями, ВВП.

WAYS TO INCREASE THE VOLUME OF ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENTS TO THE ECONOMY

Khoshimov Jakhongir

PhD, Independent researcher Tashkent Institute of Finance

Abstract

The article examines the ways to increase the scale of attracting foreign direct investments to the economy and the problems of attracting foreign investments to the national economy. Also, ways to increase the attractiveness of attracting foreign direct investment to the economy of Uzbekistan were considered and suggestions and recommendations were formulated.

Keywords: foreign investment, foreign direct investment, enterprise with foreign investment, GDP.

Kirish

Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrda mamlakatlar iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini oshirishni taqoza etmoqda. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi”¹. BMTning xalqaro investitsiyalar bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 2021 yilda 1,58 trln AQSH dollarini tashkil etdi, bu 2020 yilga nisbatan 64 foizga ko‘p. Biroq o‘shishning deyarli to‘rttdan uch qismi rivojlangan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keldi, bu yerdagi oqim 2021 yilda 746 mlrd. AQSH dollariga yetgan va bu ko‘rsatkich 2020 yilga nisbatan ikki barobar ko‘p”². Bunday sharoitda milliy iqtisodiyotimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashning ahamiyati ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda keyingi davrda hududlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilgan holda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush faravonligini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlikni qisqartirish, innovatsion hududlarni shakllantirish borasida maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard AQSH dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish”³ kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tushunchasiga mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turlicha ta‘riflar berilgan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz:

O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalari-chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobidan investitsiyalari (2019) [4].

A.Sh.Bekmurodov (2012) fikricha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar-investorga korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport qilish va shu bilan karxona asosiy bosh kompaniyasining xorijiy sho‘ba korxonasiga aylanadi [5].

B.A.Vaxobov (2010) esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar-investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta‘sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir, deb ta‘kidlaydi [6].

A.S.Azizov (2021) to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo‘jalik faoliyati ustidan qisman yoki to‘liq nazoratni ta‘minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta‘kidlaydi [7].

A.A.Sotvoldiyev fikriga ko‘ra (2019) to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar turli obyektlarga, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish uchun iqtisodiy foyda va ijtimoiy samara olishni ko‘zlab, mamlakat ichkarisida yoki boshqa xorijiy davlatga tavakkalchilik

¹ James E. Anderson, Mario Larch, Yoto V. Yotov. Trade and Investment in the Global Economy. Journal of NBER Working Paper No. 23757 (2017) 1879-1913. <https://www.nber.org/papers/w23757>.

² World Investment Report 2022: International tax reforms and sustainable investment https://unctad.org/system/files/official-document/wir2022_en.pdf

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.


asosida davlat kafolatisiz kiritiladigan uzoq muddatli kapital qo'yilmalardir [8] deb ta'rif bergan.

Material va metod

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, “Hayotning o'zi va o'tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o'zgartirishni ta'minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda”⁴ deb ta'kidlagan edi.

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt yaxshi anglaydi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda, jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas.

Bozor islohotlarining navbatdagi bosqichida mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investiyalarni jalb etishni takomillashtirish masalalarini hal qilish, xorijiy sarmoyasini jalb qilish borasidagi muammolarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirish hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari asosiy vazifalardan biridir. Ana shunday vazifalarning amalga oshirilishi hisobiga 2016-2021 yillar davomida mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'atlari ta'minlanayotganligi qayd etilmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar to'g'risida ma'lumot (mlrd. AQSH dollar)

Manba: www.miit.uz, www.cbu.uz Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va Markaziy banki ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.


Mamlakatimizda TTXI oqimining 2019 yilga nisbatan 0,6 mlrd. AQSH dollariga pasayishi kuzatilib, 2020 yilda 1,7 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Mamlakatimizda avvalgi yillarda rejalashtirilgan investitsion loyihalar hisobidan va pandemiya sharoitida investitsion

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 yanvarda o'tkazilgan majlisidagi «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2017 y. 16.01

loyihalarni amalga oshirayotgan xo‘jalik subyektlari hamda tadbirkorlarning hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2020 yilda 4,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2019 yilga nisbatan pasayish kuzatilmadi.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tendensiyasi va ko‘rsatkichlari hamda kelgusi yillarga mo‘ljallangan prognozlariga ko‘ra ustuvor yo‘nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xorij investorlari uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

2-rasmdan ma‘lumotlarini ko‘rishimiz mumkinki, 2000-2021 yillarda O‘zbekistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining YaIMga nisbati foizini tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, O‘zbekistonning 2020 yilga mo‘ljallangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari 1,73 mlrd AQSH dollari tashkil etdi, bu 2019 yilga nisbatan 25,39 foizga pasaygan. 2019 yil uchun O‘zbekistonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari 2,32 mlrd AQSH dollari tashkil etdi, bu 2018 yilga nisbatan 270,82 foizga o‘ydi. 2018 yil uchun O‘zbekistonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari 0,62 mlrd AQSH dollari tashkil etdi, bu 2017 yilga nisbatan 65,26 foizga kamaydi. 2017 yil uchun O‘zbekistonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari 1,80 mlrd AQSH dollari tashkil etdi, bu 2016 yilga nisbatan 8,14 foizga o‘sgani ko‘rishimiz mumkin.




2-rasm. 2000-2021 yillarda O‘zbekistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi mlrd AQSH dollarida YaIMga nisbati foizda

Manba: <https://www.macrotrends.net/countries/UZB/uzbekistan/foreign-direct-investment> statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2020-2022 yillarda O‘zbekistonda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasiga 676,8 million AQSH dollarlik investitsiyalarni jalb qilindi. 2020 yilda investitsiyalarning umumiy hajmi 178,7 million AQSH dollari tashkil etadi, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – 139,2 million AQSH dollar, davlat kafolati ostida chet el kreditlari – 37,5 million AQSH dollar tashkil qildi. 2021 yilda investitsiyalarning umumiy hajmi 241,7 million AQSH dollari tashkil etdi, shundan 171,9 million AQSH dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, davlat kafolati ostida chet el kreditlari 67,7 million AQSH dollar tashkil qilmoqda.

3-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko’rsatadiki, 2011-2021 yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. Uni quyidagi rasm orqali ifodalab chiqamiz.




3-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar ulishi, foizda

Manba: www.stat.uz Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Xususan, 2011 yilda ulushi 19,8 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2018 yilga kelib, bu ko’rsatkich 45 foizga yetgan, 2019-2021 yillarda jahonda yuz bergan pandemiyaning salbiy ta’siri mamlakatimiz iqtisodiyotida kuzatilmadi shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar ulishi kamaymadi va oqibatda, ularning umumiy asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi 42,7 foizga ko’tarildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlariga jalb qilingan to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar oqimi tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, Jumladan, 2016-2020 yillarda mamlakat iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 15 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu ko’rsatkich qo’shni Qozog’istonda 108,1 mlrd. AQSH dollariga teng bo’lib, ushbu mamlakatga yiliga o’rtacha 22 mlrd. AQSH dollari miqdorida to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiya oqimi kuzatilmoqda (4-rasm).



4-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlariga jalb qilingan to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar oqimi (mlrd. AQSH dollari hisobida)

Manba: <https://cabar.asia/ru/pyamyje-inostrannye-investitsii-v-kazahstane-v-2020-godu-struktura-i-dinamika> asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Bunday holat O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari talab darajasida emasligini yaqqol namoyon etadi hamda iqtisodiyot o‘shining yuqori sur‘atlari va xorijiy sarmoyaga o‘tib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emasligini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat YalM hajmidagi salmog‘ining o‘tib borishi O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlar bilan tashkil etilgan qo‘shma korxonalar sonining ko‘payib borayotganligidan darak beradi. 2018 yildan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorining 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirilishi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to‘g‘risidagi talabning bekor qilinishi, ushbu turdagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini 600 million so‘mdan 400 million so‘mgacha pasaytirilganligi hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat boji miqdorining uch baravarga kamaytirilganligi⁵, xorijiy investitsiyalar miqdoriga qarab soliq imtiyozlarining berilayotganligi⁶ xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etdi.

Iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lamini oshirish bo‘yicha quyidagi ayrim jiddiy muammo mavjudligini ko‘rsatadi:

1. O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lami talab darajasida emas. Iqtisodiyot o‘shining yuqori sur‘atlari va xorijiy sarmoyaga o‘tib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga nomuvofiq. Xususan, 2016-2020 yillar davomida iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi qo‘shni Qozog‘iston Respublikasiga nisbatan 7,2 martaga kam bo‘lgan.

Shu munosabat bilan jahon amaliyoti va tajriba asosida iqtisodiy o‘shining bir maromdagi yuqori va barqaror sur‘atlarini saqlab qolish, iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun yirik korxonalar aktivlarining katta qismini chet ellik investorlar qo‘lida bo‘lgan modelni shakllantirish lozim. Ya‘ni yirik korxonalar ustav kapitalaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o‘z navbatida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiya hajmidagi ulushining oshishiga, milliy fond bozorining taraqqiyotiga imkon beradi.

Xulosa

Iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish ko‘lamini oshirish yo‘llariga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirish natijasida bir necha xulosalarga kelindi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

1. 2016-2021 yillar davomida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning o‘tib borishi qat‘iylik (barqarorlik) xarakteriga ega emas. Ushbu ko‘rsatkich tahlil qilingan yillar daomida «ko‘tarilish-pasayish-ko‘tarilish-pasayish-ko‘tarilish» tarzida o‘zgarib borgan. Buning o‘ziga xos sabablaridan biri xorijiy investitsiyalar YalMning eng muhim va o‘zgaruvchan komponenti bo‘lib, ularni taxmin qilish juda qiyin. Xorijiy investitsiyalar to‘satdan o‘tib ketishi yoki aksincha tushib ketishi ham mumkin. Ikkinchidan, bunday manzaraning amaliyotda kuzatilishi bu yerda unga tegishli talaygina muammolarning mavjudligini ham ko‘rsatadi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5495-son Farmoni.

⁶ Masalan, jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘idan, mol-mulk solig‘idan va yagona soliq to‘lovidan ozod etish muddatlari uzaytirilgan.

2. Iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish ko‘lamini oshirish maqsadida, xususan, amaliyotda quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

—yirik korxonalar ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish zarur;

—chet ellik investorlarga kafolatlar va qo‘llab-quvvatlash choralari, xususan, imtiyozlar va preferensiyalar har bir aniq holatda berilishi lozim;

—istiqbolda xorijiy investorning yuqori qiymatli va o‘z mablag‘lari ulushi 25 foizdan kam bo‘lmagan qo‘shma investitsiya loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlashni moliyalashtirish Davlat budjeti mablag‘laridan amalga oshirilishi kerak;

—xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etiladigan korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 15 foizdan 10 foizgacha kamaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. James E. Anderson, Mario Larch, Yoto V. Yotov. Trade and Investment in the Global Economy. Journal of NBER Working Paper No. 23757 (2017) 1879-1913. <https://www.nber.org/papers/w23757>.

2. World Investment Report 2022: International tax reforms and sustainable investment https://unctad.org/system/files/official-document/wir2022_en.pdf

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda «Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida» gi O‘RQ-598-son Qonuni, 3-modda.

5. A.Sh.Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012 – T. – O‘quv qo‘llanma.

6. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O‘quv qo‘llanma.

7. A.S.Azizov. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.

8. A.A.Sotvoldiyev. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ko‘lamini oshirish yo‘llari (andijon viloyati misolida). Iqt. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2019. – 9 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 yanvarda o‘tkazilgan majlisdagi «Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» ma‘ruzasini. //Xalq so‘zi. 2017 y. 16.01

10. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va Markaziy banki ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

11. <https://www.macrotrends.net/countries/UZB/uzbekistan/foreign-direct-investment> statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

12. www.stat.uz Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

13. <https://cabar.asia/ru/pryamye-inostranye-investitsii-v-kazahstane-v-2020-godu-struktura-i-dinamika> asosida muallif tomonidan tayyorlandi